O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

«XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVATSION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI»

MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI

TO‘PLAMI

(II QISM)



SAMARQAND

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

TAMBOV DAVLAT UNIVERSITETI

QARSHI MUXANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

«IPAK YO‘LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO UNIVERSITETI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI

«XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVATSION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(II QISM)

2026-yil 20-21-fevral kunlari

SAMARQAND – 2026

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАТSIЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

ТАМБОВСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ «ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»

САМАРКАНДСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

“НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ НА ОСНОВЕ ПРИНЦИПОВ ЗЕЛЕНОЙ И ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ”

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

(ЧАСТЬ 2)

(20-21-февраль 2026-г.)

САМАРКАНД – 2026

UO’K: 338.2:004(082)
I-52
KBK: 65.7

Xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror rivojlantirish yo‘nalishlari */xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (II qism). 2026 йил 20-21-fevral kunlari. Samarqand, SamISI, 2026. – 296 bet.*

Nashr uchun mas’ul:
M.Q.Pardayev – iqtisod fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi rahbari:
M.E.Po‘latov – iqtisod fanlari doktori, professor

Tahririyat kengashi a’zolari:
M.M.Muxammedov – iqtisod fanlari doktori, professor,
J.R.Zaynalov – iqtisod fanlari doktori, professor,
I.S.Tuxliev – iqtisod fanlari doktori, professor,
O.Murtazaev – iqtisod fanlari doktori, professor,
R.X.Ergashev – iqtisod fanlari doktori, professor,
V.I.Abdukarimov – iqtisod fanlari doktori, professor,
N.A.Ibragimov – iqtisod fanlari doktori, professor,
K.B.Urazov – iqtisod fanlari doktori, professor,
Q.J.Mirzaev – iqtisod fanlari doktori, professor,
A.Eshtaev – iqtisod fanlari doktori, professor,
S.N.Tashnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor,
A.N.Xoliqulov – iqtisod fanlari nomzodi, professor,
D.H.Xolmamatov– iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.
Sahifalovchi: Firdavs O‘roqov

An’anaviy ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida xizmatlar sohasini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror rivojlantirish muammolari va ularning yechimlari, sohaning alohida tarmoqlari samaradorligini oshirish istiqbollariga oid masalalar yoritilgan barqaror iqtisodiy rivojlanish va xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovasion iqtisodiyot tamoyillari asosida jadal rivojlantirishning nazariy va metodologik muammolari va ularni hal qilishning strategik yo‘nalishlari, kambag‘allikni qisqartirish, aholi bandligi, farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish masalalari, hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirish jarayonida marketing va menejment imkoniyatlarini takomillashtirish masalalari, xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovasion iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirishda investisiyalarni jalb qilish va moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish masalalari, hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sish va aholi farovonligini oshirishda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit muammolarini bartaraf qilish masalalari, xizmat ko‘rsatish sohasini yashil va innovatsion iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish orqali hududlarda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish muammolarini hal qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislar o‘rin olgan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-225-40-6

© SamISI, 2026 y.

Mullayeva Mexrangiz Axtam qizi *– Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Raqamli iqtisodiyot kafedrasi tayanch doktaranti*

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA IQTISODIY MEXANIZMNI TAKOMILLASHTIRISH VA DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xizmat ko‘rsatish sohasida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Yashil va innovasion iqtisodiyot tamoyillari asosida moliyaviy, investitsion va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish yo‘nalishlari ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Iqtisodiy mexanizm, davlat qo‘llab-quvvatlashi, investitsiya, yashil moliyalashtirish, innovasion rivojlanish, barqaror o‘sish.*

Abstract*. This article analyzes the issues of improving the economic mechanism for increasing the efficiency of enterprises in the service sector and developing state support instruments. The directions of improving financial, investment and institutional mechanisms based on the principles of a green and innovative economy are scientifically substantiated.*

Keywords: *Economic mechanism, state support, investment, green financing, innovative development, sustainable growth.*

Аннотация: *В данной статье анализируются вопросы совершенствования экономического механизма повышения эффективности предприятий сферы услуг и развития инструментов государственной поддержки. Научно обоснованы направления совершенствования финансовых, инвестиционных и институциональных механизмов на основе принципов зеленой и инновационной экономики.*

Ключевые слова: *Экономический механизм, государственная поддержка, инвестиции, зеленое финансирование, инновационное развитие, устойчивый рост*.

Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda xizmat ko‘rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning eng dinamik va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur soha yalpi ichki mahsulot tarkibida salmoqli ulushga ega bo‘lib, aholi bandligini ta’minlash, daromadlarni oshirish, ichki bozorni to‘ldirish va eksport salohiyatini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalari o‘rtasidagi raqobat kuchaymoqda. Bu esa xizmat sifati, tezkorlik, innovasion yondashuv va mijozlarga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini talab etadi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonlari xizmatlar ko‘rsatish shaklini tubdan o‘zgartirmoqda: onlayn platformalar, elektron to‘lov tizimlari, sun’iy intellekt asosidagi xizmatlar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari yangi iqtisodiy muhitni shakllantirmoqda.

Bundan tashqari, global ekologik muammolar, resurslarning cheklanganligi va iqlim o‘zgarishi sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasida ham yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash, chiqindilarni kamaytirish, ekologik standartlarga rioya qilish nafaqat xarajatlarni qisqartiradi, balki korxonalarning

uzoq muddatli raqobatbardoshligini ham oshiradi. Shu sababli xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Davlat tomonidan yaratiladigan qulay institutsional muhit, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari va innovasion infratuzilma rivoji sohaning barqaror o‘sishiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini yashil va innovasion iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

1. Xizmat ko‘rsatish sohasining zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;
2. Soha samaradorligini belgilovchi iqtisodiy omillarni aniqlash;
3. Iqtisodiy mexanizmning tarkibiy qismlarini (narx siyosati, investitsiya mexanizmi, soliq va kredit instrumentlari) takomillashtirish yo‘nalishlarini asoslash;
4. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini xizmat ko‘rsatish faoliyatiga integratsiyalash mexanizmini ishlab chiqish;
5. Innovasion rivojlanishni rag‘batlantirish bo‘yicha davlat instrumentlarini (grantlar, subsidiyalar, texnoparklar, klasterlar) taklif etish;
6. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarini qo‘llab-quvvatlashning samarali modelini ishlab chiqish.

Quyidagi samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish ijobiy amaliy natijalarga erishish imkonini beradi:

- xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy mexanizmning konseptual modelini ishlab chiqish;
- davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali va manzilli instrumentlari ishlab chiqish;
- yashil va innovasion iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan rivojlanish strategiyasi shakllantirish;
- xizmat ko‘rsatish korxonalarining uzoq muddatli barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalar berish.

Natijada xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi, ekologik barqaror va innovasion rivojlanishga yo‘naltirilgan strategik tarmog‘iga aylanishi mumkin.

Iqtisodiy mexanizm – bu xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tartibga soluvchi iqtisodiy usullar, vositalar va rag‘batlantirish choralarining o‘zaro bog‘liq tizimidir. U narx mexanizmi, soliq va kredit siyosati, investitsiya oqimlari, foyda taqsimoti, raqobat muhiti hamda davlat tomonidan tartibga solish instrumentlarini o‘z ichiga oladi. Xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy mexanizmning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

- moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish;
- xarajatlarni kamaytirish va foydani oshirish;

- xizmat sifatini yaxshilash;
- bozor talabiga moslashuvchanlikni ta’minlash.

Nazariy jihatdan, samarali iqtisodiy mexanizm talab va taklif muvozanatini ta’minlashi, resurslarni eng samarali yo‘nalishlarga yo‘naltirishi hamda raqobatni qo‘llab-quvvatlashi lozim. Zamonaviy sharoitda esa ushbu mexanizm an’anaviy iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Uni ekologik (energiya tejamkorlik, chiqindilarni kamaytirish) va innovasion (raqamlashtirish, texnologik yangilanish) komponentlar bilan boyitish zarur. Bu yondashuv barqaror rivojlanish konsepsiyasiga mos keladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat xizmat ko‘rsatish sohasini bevosita boshqarmaydi, balki iqtisodiy rag‘batlar orqali yo‘naltiradi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Soliq imtiyozlari va subsidiyalar – yangi tashkil etilgan yoki innovasion loyihalarni amalga oshirayotgan korxonalar uchun soliq yukini kamaytirish.
2. Yashil kredit va grant dasturlari – energiya tejamkor uskunalar xaridi yoki ekologik loyihalar uchun imtiyozli moliyalashtirish.
3. Innovasion loyihalarni moliyalashtirish – startaplar, IT-platformalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etishga grant ajratish.
4. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish – internet qamrovini kengaytirish, elektron hukumat tizimlarini takomillashtirish.

Ushbu instrumentlar xizmat ko‘rsatish korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, investitsion faolligini oshiradi va bozor sharoitida raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida ekologik loyihalarni moliyalashtirish muhim o‘rin tutadi. Xizmat ko‘rsatish sohasida bu, asosan, energiya samaradorligi va resurs tejamkorligi bilan bog‘liq. Yashil moliyalashtirishning asosiy shakllari:

- yashil obligatsiyalar chiqarish;
- ekologik kredit liniyalari;
- davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar.

Ushbu mexanizmlar orqali energiya sarfi kamayadi, uzoq muddatda xarajatlar qisqaradi va korxonalar ekologik standartlarga moslashadi. Investitsiya muhitini yaxshilash (huquqiy kafolatlar, shaffoflik, soddalashtirilgan tartiblar) innovasion loyihalarning keng joriy etilishiga xizmat qiladi. Bu esa xizmat ko‘rsatish sohasida yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishga olib keladi.

Innovasion rivojlanish xizmat ko‘rsatish sohasining sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishini ta’minlaydi. Uni rag‘batlantirish uchun quyidagilar zarur:

- soliq preferensiyalari va bojxona imtiyozlari;
- grant va subsidiyalar;
- startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash markazlari;
- texnopark va innovasion klasterlar tashkil etish.

Raqamlashtirish jarayonlari xizmat ko‘rsatish tezligini oshiradi, inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytiradi va boshqaruv xarajatlarini

qisqartiradi. Masalan, elektron to‘lov tizimlari va onlayn xizmatlar shaffoflikni oshiradi hamda mijozlar bilan aloqani mustahkamlaydi.

Fikrimizcha, xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish ko‘p darajali yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim:

1. Mikro daraja (korxona darajasi)
- ichki boshqaruv tizimini optimallashtirish;
- xarajatlarni tahlil qilish va energiya samaradorligini oshirish;
- raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- xizmat sifatini oshirish.

2. Mezo daraja (hududiy daraja)
- hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;
- xizmat ko‘rsatish klasterlarini tashkil etish;
- infratuzilmani modernizatsiya qilish;
- mahalliy investitsiyalarni jalb etish.

3. Makro daraja (davlat darajasi)
- normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- soliq va kredit siyosatini optimallashtirish;
- yashil va innovasion iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish.

Ushbu uch darajali model tizimli va muvofiqlashtirilgan yondashuvni ta’minlaydi hamda xizmat ko‘rsatish sohasining uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy mexanizmni yashil va innovasion iqtisodiyot tamoyillari asosida takomillashtirish zarur. Bu jarayon davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini samarali qo‘llash bilan chambarchas bog‘liq. Moliyaviy, investitsion va institutsional mexanizmlarni rivojlantirish orqali xizmat ko‘rsatish korxonalarining raqobatbardoshligi oshadi, resurslardan foydalanish samaradorligi yaxshilanadi va barqaror iqtisodiy o‘sish ta’minlanadi. Shu tariqa xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning innovasion va ekologik jihatdan barqaror tarmog‘iga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PF-436-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni.
4. OECD. Green Growth Indicators. Paris: OECD Publishing, 2017.
5. Porter M. Competitive Advantage. New York: Free Press, 1985.
6. Kotler P., Keller K. Marketing Management. Pearson, 2016.
7. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. Harvard University Press, 1934.

Насиров Дилшод Фархадович	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ПОВЫШЕНИЯ ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ СФЕРЫ УСЛУГ	203
Олтаев Шавкат Собирович	МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ - АҲОЛИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ	209
Mullayeva Mexrangiz Axtam qizi	XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA IQTISODIY MEXANIZMNI TAKOMILLASHTIRISH VA DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNI RIVOJLANTIRISH	213
Toshtemirov Doston O‘ktam o‘g‘li	TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	217
Akmal Tulkunovich Muminov	INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH	222
VI SHO‘BA.XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI YASHIL VA INNOVASION IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH ORQALI HUDUDLARDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHDA BUXGALTERIYA HISOBI, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT MUAMMOLARINI BARTARAF QILISH MASALALARI		
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Озода Мамаюнусовна Пардаева, Обид Мамаюнусович Пардаев	БИЗНЕС-ТАҲЛИЛНИ РИВОЖЛАНТИРИШ КОНЦЕПЦИЯСИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ ВА АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ	227
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Зариф Юсуфович Аминов, Озода Мамаюнусова Пардаева	БИЗНЕС-ТАҲЛИЛНИНГ РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ПРИНЦИПЛАРИ	231
Abdug‘aniyev Uchqun Habibulla o‘g‘li	KICHIK BIZNESNI LEGALLASHTIRISHDA MOBIL SOLIQ VA HISOB TIZIMLARI: ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON UCHUN ISTIQBOLLAR	238